

**TRANSPORT LOGISTIKASI SOHASINI BOSHQARISH VA
UNING IQTISODIY SAMARADORLIGIGA TA'SIR
KO'RSATUVCHI OMILLAR**

Rahmatov Saloxiddin Sunnat o'g'li - magistrant

Axmedov Zohid Sobirovich

Jizzax shahri, Islom Karimov prospekti – 4.

Jizzax Politexnika Instituti.

Iqtisodiyotimizni jahon bozoriga integratsiya qilish va eksportni qo'llab-quvvatlash borasida transport-logistika tizimini takomillashtirish ham eng dolzarb masala¹ bo'lib, ushbu vazifalarni amalga oshirishda "O'zbekistan Eyrveys" va "O'zbekiston temir yo'llari" kompaniyalari tovarlarimizni eksport qilish bo'yicha zamonaviy logistika yo'naliishlarini yaratishlari zarur bo'lib, Vazirlar Mahkamasi eksport yuklarini qo'shni davlatlardan temir yo'l orqali imtiyozli narxlarda o'tkazish bo'yicha muzokaralar olib borishi kerak. Shu bilan birga, Juhon bankining "Logistika samaradorligi indeksi" dagi mamlakatimiz o'rnini yuqori pozitsiyaga ko'tarish choralarini ko'rish lozimligi bo'yicha vazifalar belgilandi. Bu vazifalarni amalga O'zbekistonning logistik tizimini samarali tashkil etishda innovatsion yo'naliishlarni tanlash logistik boshqaruv usullari samarali tashkil etish kabi muammolar muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Innovatsion logistika mijozlarga xizmat ko'rsatish sifatini oshirishga qaratilgan turli yangiliklarni qo'llash orqali logistika jarayonlarini boshqarishni takomillashtirish shuningdek, logistika jarayonlarining samaradorligini oshirish va logistika jarayonlaridan xarajatlarni kamaytirish imkoniyatini yuzaga chiqaradi. Innovatsion logistika tizimlari bir-biri bilan chambarchas bog'liq va to'g'ridan-to'g'ri tovar aylanmasining tashkiliy tizimida paydo bo'ladi, bu esa logistikada tizimli innovatsiyalar sohasidagi jarayonlarning uzviy bog'liq zanjirini yaratish imkonini beradi.

Logistika sohasidagi innovatsiyalar holatini va umuman O'zbekiston iqtisodiyotida logistikani rivojlanishini doimiy baholab borish tavsiya etiladi. O'zbekiston iqtisodiyotining innovatsion rivojlanish jarayonida logistika tizimlarni boshqarishning innovatsion usullarini ishlab chiqish va iqtisodiy rivojlanish darajasiga muvofiqligini ta'minlash zarurati mavjud.

O'zbekiston Respublikasida eksport salohiyatini oshirish hamda mahalliy mahsulotni sotish bozorlarini kengaytirish zaruriyati tashqi savdo yo'naliishlarini diversifikatsiyalash uchun qulay shart-sharoitlar yaratishni, O'zbekiston Respublikasining eksport mahsuloti istiqbolli xalqaro bozorlarga chiqishini ta'minlaydigan maksimal darajada samarali, muqobil tranzit yo'laklarini shakllantirishni taqazo qilmoqda. Ayni paytda respublikamizning 10 mintaqasida tashkil etilgan 14 ta erkin iqtisodiy zonalarda yuzaga keladigan bojxona, transport – ekspeditorlik, omborxona va informatsion logistika sohasida to'liq kompleks

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning 2018 yil 28-dekabrdagi Oliy Majlisga murojaatnomasi. Lex. uz.

xizmatlarini ko'rsatishga oid yuzaga kelayotgan talablarga nisbatan mutanosib ravishda transport-logistika markazlari (taklif) tashkil etilmagan. Yurtimizda faqat 5 ta ya'ni "Navoiy" xalqaro intermodal logistik markazi, "Angren", "Toshkent", "Termiz" va "Pop" xalqaro logistika markazlari tashkil etilib, faoliyat yuritib kelmoqda.

O'zbekistonda jami tashilgan yuklarning deyarli 90,5 % avtomobil transportiga to'g'ri kelishini nazarda tutsak, logistikani innovatsion rivojlantirishda bunday texnologiyalardan foydalanish maqsadga muvofiq. Bu texnologiyaning asosiy afzalliklari quyidagilardan iborat: birinchidan, tovarlarni tezkor etkazib berish. Bunday avtomatik yuk mashinalari faqat yonilg'i quyish uchun to'xtaydi. Ovqatlanish, uqlash yoki dush olish uchun to'xtash joyi yo'q. Bunday yuk mashinasi taxminan 60 soat ichida 5000 km masofani bosib o'tishga qodir.

Ikkinchidan yuk tashuvchisi ish haqi, haydovchilarga ijtimoiy va sug'urta to'lovlari va soliqlardan tejaydi.

Uchinchidan bunday yuk mashinasi yo'l qoidalarini buzmaydi, chunki u ichki xissiyotlarsiz faqat dasturda belgilangan vazifalarni bajaradi.

Bundan tashqari ishlab chiqarish siklini va yuk tashishlarini nazorat qilish va tahlil qilishning avtomatlashdirilgan echimini tadbiq etish maqsadga muvofiq bo'lib, bu tizim transport va logistika tashkilotlari ishini osonlashtiradi. Ushbu avtomatlashdirish tizimini joriy qilinishi avtomobil transporti korxonalari omborning unumdarligini oshirish, qayta ishlashni to'liq yo'q qilish, mahsulot oqimini qayta ishlash tannarxini pasaytirish va ob'ektni normallashtirilgan rejimda barqaror ishlashiga erishishda alohida o'rinn egallaydi. Bundan tashqari, ushbu tizim xodimlarning ishtiyoqini oshirishga, kompaniya xodimlarining ishi ustidan nazoratni yaxshilashga, turli bo'limlar xodimlarining o'zaro munosabatlarini optimallashtirishga, mijozlarning takliflarini qayta ishlash tezligini oshirishga yordam beradi.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida internetdan foydalanish logistika xizmatlari sohasida o'z mijozlari uchun individual, avtomatlashdirilgan xizmatlarni yaratish orqali yuqori darajadagi operatsion samaradorlikka erishishga imkon beradi. Masalan, yuk mashinalar va konteynerlarga o'rnatiladigan kuzatuv datchiklari ular xarakatlarini onlayn kuzatish imkonini beradi. Demak, logistik tizim samaradorligini aniqlashga yangicha yondashuvlar barcha tizimlarni, jumladan ta'minot, ishlab chiqarish, taqsimot, ombor, zaxiralarni boshqarish, transportirovka, xalqaro logistik tizim, logistikani boshqarish tizimi, logistik axborot tizimi kabi omillarni hisobga olishni, ular bo'yicha innovatsion modellarni qo'llashni nazarda tutadi.

O'zbekiston Respublikasida transport logistika sohasinining asoslarini tartibga soluvchi, rivojlantiruvchi me'yoriy-huquqiy hujjatlar bazasi takomillashtirib borilmoqda, jumladan, 6 ta qonun, 7 ta O'zbekiston Respblikasi Prezidenti Farmon va qarorlari, 13 ta Vazirlar Mahkamasi qarorlari va 9 tadan ortiq xalqaro konvensiyalar qabul qilingan (1-jadval).

Respublikada tashqi savdo transport yo'laklarini diversifikatsiyalash maqsadida qo'shimcha qo'shimcha shart-sharoitlarni yaratish, transport tranzit salohiyatini oshirish, shuningdek, mahalliy transport-logistika kompaniyalarini rivojlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 02.12.2017 yilda "2018 - 2022

yillarda transport infratuzilmasini takomillashtirish va yuk tashishning tashqi savdo yo'nalishlarini diversifikatsiyalash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3422-sloni qarori qabul qilingan.

Transport logistika sohasinining asoslarini tartibga soluvchi, rivojlantiruvchi me'yoriy-huquqiy hujjatlar sharhi

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 26 oktyabrdagi "Erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini faollashtirish va kengaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar" to'g'risidagi PF-4853-sloni farmoni 2008 yil 31 dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Navoiy" shahar aeroporti bazasida xalqaro intermodal logistika markazini tashkil etish choralarini to'g'risida"gi PQ-1027-sloni qarori.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 2.12.dagi 3422-son "2018-2022 yillarda transport infratuzilmasini takomillashtirish va yuk tashishning tashqi savdo yo'nalishlarini diversifikasiyalash chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarori. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 12 apreldagi PQ-3665-son "O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona xizmati organlarining faoliyatini ташкил этиш турлилар"gi qarori.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 12 apreldagi PQ-3665-son "O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona xizmati organlarining faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi qarori. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 20 iyundagi "investisiya va infratuzilma loyihalarini jadal amalga oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 3794-sloni qarori

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 1.02.dagi "transport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 6.03.dagi 4230-son "yuk va yo'lovchi tashish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'rsida"gi qarori

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son Farmoni. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 1 avgustdag'i "O'zbekiston Respublikasida investisiya muhitini tubdan yaxshilash chora- tadbirlari to'g'risid"gi PF-5495-sloni farmoni

1-jadval. Transport logistika sohasinining asoslarini tartibga soluvchi, rivojlantiruvchi me'yoriy-huquqiy hujjatlar sharhi²

² Qonunchilik hujjatlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Mazkur qarorga ko‘ra, xalqaro yuk tashishni amalga oshirayotgan avtotransport korxonalarini va transport-logistika kompaniyalarini rivojlantirish maqsadida ularga 2022 yil 1-yanvarga kadar bir qator imtiyozli shart-sharoitlar yaratilgan. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 02.12.2017 yilda “2018 - 2022 yillarda transport infratuzilmasini takomillashtirish va yuk tashishning tashqi savdo yo‘nalishlarini diversifikatsiyalash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3422-sonli qarori ham qabul qilingan.

Bu qarorga asosan avtomobilarda xalqaro yuk tashishni amalga oshirayotgan milliy avtotransport korxonalarini va transport-logistika kompaniyalarini rivojlantirish maqsadida ularga 2022 yil 1 yanvarga qadar bir qator imtiyozlar taqdim etilgan, jumladan, qo‘silgan qiymat solig‘i, mulk solig‘i hamda er solig‘i to‘lashdan ozod qilishi, ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiyalashga, zamonaviy omborxona terminallari barpo etishga va bank kreditlarini to‘lashga yo‘naltirilishi.

Tadqiqot natijasida mamlakatimizning 2016-2022 yillarda transport xizmatlari ko‘rsatishning umumfoydalanilgan yo‘lning asosiy ko‘rsatkichlari o‘zgarishini tahlil qilish maqsadga muvofiq (2-jadval).

Butun dunyoda koronavirus tarqalishi munosabati bilan barcha tarmoq korxonalarida bo‘lgani kabi, avtomobil transporti tizimining xizmatlari ham o‘z faoliyatlarida bir qator muammolarga duch kelmoqdalar. COVID-19 pandemiyasi savdo zanjirlarining buzilishiga olib kelmoqda, tovarlarning boshqa davlatlar chegarasidan olib o‘tilishini qiyinlashtirib, ishlab chiqarishning to‘xtatib qo‘yilishi iste’molchilarga ishlab chiqarilgan tovarlarni etkazib berishning pasayishiga olib keladi.

2-jadval

O‘zbekiston Respublikasida 2016-2022 yillarda transportning asosiy ko‘rsatkichlari o‘zgarishining salmog‘i, o‘lchov birliklari

Ko‘rsatkichlar va o‘lchov birliklari	2016 y.	2017 y.	2018 y.	2019 y.	2020 y.	2021 y.	2022 y.	2022 yilda 2016 yilga nisbatan miqdoriy o‘zgarishi, +;-
Temir yo‘llar, ming km	,2	,3	,6	,7	,7	,7	,7	+ 0,5
Qatiq qoplamali avtomobil yo‘llari, ming km	2,0	2,0	2,0	2,1	2,1	2,1	2,1	+ 0,1
Tramvay yo‘llari, km ¹	-	-	,9	2,9	2,9	2,9	2,9	-
Trolleybus yo‘llari, ikki	5,6	3						-

	yoqlama hisobida km		3 5,6	3 5,6	3 5,6	3 5,6	3 5,6	3 5,6	
.	Metropol iten yo'llari, km ¹	3 6,1	-						
.	Magistral quvur yo'llari (neft va gaz quvur yo'llari), ming km	1 3,9	-						

1-jadvalda 2015-2020 yillarda mamlakatimizda logistika tizimining rivojlanishi asosini tashkil qiluvchi transportning asosiy ko'satkichlari o'zgarishi keltirilgan. Umumfoydalanilgan yo'lning foydalaniladigan uzunligi temir yo'llar hisobiga 4,7 ming km. ni tashkil qilib, qattiq qoplamali avtomobil yo'llari esa 2020 yilda 42,1 ming km.ni tashkil qilgan.

Olib borilgan tadqiqotlar davomida logistikaning hududiy, xalqaro miqyosda tovarlarni tashish, transport operatsiyalarni tartibga solish va boshqarishdagi samaradorligini oshirish uchun quyidagi chora-tadbirlarni o'z ichiga oluvchi mexanizmlarning vositalarini amalga oshirish zarur deb hisoblaymiz:

- transport logistika sohasida innovatsion bozor iqtisodiyotining turli mulkchilik shakllarini rivojlantirish uchun ishlab chiqarish munosabatlarini rivojlantirish;
- mahsulotlar xillarini o'z vaqtida, sifatli etkazib berishni optimallashtirishning innovatsion yo'nalishlaridan foydalanish;
- logistika tizimini rivojlantirishning texnik-texnologik imkoniyatlarini oshirish;
- hududlarda logistik markazlar infratuzilmasi va uni rivojlantirish mexanizmlarini joriy qilish;
- transport infratuzilmasi faoliyatida davlat-xususiy sherikchilik mexanizmlarini qo'llash;
- transport infratuzilmasini klasterlash orqali transport-logistika klasterlari infratuzilmasi korxonalari va tashkilotlari faoliyatini klaster usuli asosida tashkil qilish.

Markazlashtirilgan bunday rejalashtirishda raqobat yuzaga kelishi mumkin bo'lmas edi. Bunda avtotransport korxonalari hech qanday qiyinchiliklarsiz mijozlariga o'z shartlarini o'tkazar edilar. Ko'plab avtotransport korxonalari faqat tashish jarayoni operatsiyalarini bajarib, mijozlarning boshqa shartlari bilan qiziqmas edilar. Transportning "ishlab chiqaruvchi – tashib beruvchi-iste'molchi" zanjirida quyidagi kamchiliklar mavjud edi:

- transport korxonalari va ular xizmatidan foydalanuvchi iste'molchilar o'rtasidagi o'zaro munosabat juda pastdarajada edi;
- tashish jarayoni qatnashchilari o'rtasida axborot aloqasi yetarli darajada emas edi;
- yuk punktlarida transport vositalarining o'z vaqtida yetib kelmasligi natijasida konteynerlarning kutib qolish holatlari ko'p uchrab turardi;

- iste'molchilarga yuklarning jo'natilishi va qabul qilishga yetib kelish vaqtiga 'grisida yetarli ma'lumot yetkazilmas edi;

- xujjalalar aylanish tizimi takomillashmagan edi.

Shunday qilib, ma'muriy-buyruqbozlik boshqaruv tizimi iqtisodiyotda o'zining hayotga mos emasligini ko'rsatdi. Mamlakat iqtisodiyotini bozor munosabatlariiga o'tkazish muammosi yuzaga keldi.

Bozor munosabatlariiga o'tish uchun avvalo bozor munosabatlari nima va ular o'rtasida qanday bozor munosabatlari mexanizmi mavjudligi to'g'risida tushunchaga ega bo'lishimiz kerak.

Nemis iqtisodiyotchisi F.Xayek bozor munosabatlariiga o'tishning uchta asosiy tamoyilini shakllantirib berdi:

- faqat narxlarga vositalarni qaerga yo'naltirilsa, ulardan samarali foydalanishni ko'rsatib beradi;

- hamma darajalar bo'yicha raqobatni rivojlantirish;

- ishbilarmonlik faoliyatini kengaytirish.

Axborot-vositachi korxonalar yuklar yoki tashib beruvchilarni topib berish bilan shug'ullanadi. Lizing va stividorlar firmalari – transport vositalari, omborlar kompeleksi va ortish-tushirish jihozla regalari hisoblanadi.

Inflyasiya jarayonining kuchayishi, iste'molchilar sotib olish qobiliyatining pasayishi, bozorning tovarlar bilan to'lib ketishi va kuchli raqobat ishlab chiqaruvchilar, savdo va iste'molchi korxonalar o'rtasida jiddiy qiyinchiliklar tug'diradi. Sotuv hajmini saqlab qolish maqsadida ishlab chiqaruvchi narxlarni pasaytirish, sotiladigan tovarlar partiyasini kamaytirish, reklamalarni kuchaytirish, mavsumiy narxlarni pasaytirish va past narxlarda sotishni tashkil qilish bilan cheklanib qolmay, balki mamlakat tashqarisida dillerlik va distribyutorlik tarmog'ini kengaytirishga harakat qilishi kerak bo'ladi.

Tovarlar yetkazib berish samaradorligini oshirishning yo'llaridan biri tashish ishlarini optimallashtirishdan iboratdir. Ba'zi tovarlarni ishlab chiqarishga sarflanadigan xarajatlar tovar narxining faqat 10% tashkil etib, buning taqsimoti, shuningdek, etkazib berish xarajatlariga nisbatan juda kamdir.

Shunday qilib avtomobil transporti xizmat bozorida markazlashtirilgan rejalahtirish masalalari asosiy masalalrni hal etadi, jumladan tovarlar yetkazib berish samaradorligini oshirishning yo'llaridan biri tashishishlarini optimallashtirishdan iborat ekanligi avtotransport tashkilotlari uchun muhim hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak.-T.: O'zbekiston, 2017.-103 b.
2. Bo'tayev Sh.A.va boshqalar. Logistika (etkazib berish zanjirida oqimlarni boshqarish)T.: extremum-press, 2012-575 b.
3. Bo'tayev Sh.A., Mirzaahmedov B.M. Jo'rayev M.N., Do'rmonov A.Sh., Baxadirov B. Tashish jarayonlarini modellashtirish va optimallashtirish-Toshkent: Fan, 2009-240 b.

4. Косимов, С. Х., & Нишонов, А. О. У. (2021). Пути развитие логистической системы при организации перевозки грузов на международных маршрутах. Academic research in educational sciences,
5. Мухторов.А, & Эргашева, К. (2022). ТРАНСПОРТ ВОСИТАЛАРИНИНГ ЮКЛАНГАНЛИК МАСАЛАЛАРИ ТАШИШДА ЮКНИНГ НОМЕНКЛАТУРАСИ.. Академис Ресеарч ин Эдусатионал Ссиенсес, 3(2), 534–540.
6. Косимов, С. (2021). ПРИМЕНЕНИЕ ОБУЧАЮЩИХ ПРОГРАММ-ТРЕНАЖЕРОВ В ОБУЧЕНИИ ПРЕДМЕТА «ЛОГИСТИКА ТРАНСПОРТА». InterConf.
7. Истроилов, Ф. И., & Норкулов, А. Я. (2021). ЮКЛАРНИ ИСТЕЙМОЛЧИ МАНЗИЛИГА ЕТКАЗИБ БЕРИШ ЖАРАЁНИНИ БОШҚАРИШ МОДЕЛИ. Academic research in educational sciences, 2(1).
8. Косимов, С., & Косимов, Б. (2021). ФАКТОРЫ ФОРМИРОВАНИЯ И РАЗВИТИЯ СОВРЕМЕННЫХ ТЕРМИНАЛОВ В ЛОГИСТИЧЕСКОЙ СИСТЕМЕ. InterConf.
9. Qosimov, S. (2021). METHODICAL BASIS FOR TEACHING ELECTRONIC EDUCATION. InterConf.
10. Yuldoshov B.T.Axmedov Z.S. NEFT SANOATINING EKOLOGIYAGA TA'SIRINI O'RGANISH VA EKOLOGIYAGA TA'SIRINI KAMAYTIRISHNI TA'MINLASH" // Экономика и социум" №12(103)-1 2022
11. Qosimov S.H. (2023). YUKLARNI TASHISHDA TERMINAL VA LOGISTIKA TEKNOLOGIYASINING HOZIRGI HOLATI VA UNING RIVOJLANISHI. Экономика и социум, (4-1 (107)), 255-258.
12. Ахмедов З.С., Файзиев О.Э., Нурмакамматов Ж.Т. РАЗВИТИЕ ТРАНСПОРТНОЙ СИСТЕМЫ ОБЕСПЕЧИВАЮЩЕГО ВЫХОДА НАЦИОНАЛЬНОЙ ПРОДУКЦИИ НА РЕГИОНАЛЬНЫЕ И МЕЖДУНАРОДНЫЕ РЫНКИ // Universum: технические науки : электрон. научн. журн. 2022. 12(105). URL: <https://7universum.com/ru/tech/archive/item/14814>
13. Qosimov S.H. YUKLARNI TASHISHNI TASHKIL ETISH ASOSIDA HUDUDLARDA TERMINAL TEKNOLOGIYASINI QO'LLASH LOGISTIK TIZIMINI SHAKLLANTIRISH // Экономика и социум. 2022. №12-1 (103). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/yuklarni-tashishni-tashkil-etish-asosida-hududlarda-terminal-teknologiyasini-qo-llash-logistik-tizimini-shakllantirish> (дата обращения: 05.04.2023).
14. Эргашева Камола Илхомжон қизи “ТРАНСПОРТ ЛОГИСТИКА ТИЗИМИНИНГ БОШҚАРУВ СТРУКТУРАСИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ УСУЛЛАРИ”. «Экономика и социум» 1 (декабрь, 2022). Сайт: <http://www.iupr.ru> 1122-1125
15. Mustafoev Behzod, Xamdamova Shoxista. NOMENKLATURE OF FREIGHT IN TRANSPORTATION ISSUES OF VEHICLES. UNIVERSUM, 2022.- 50 p.